

TALABALAR ILMIY DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING AXBOROTLI TA'MINOTIDAN BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA FOYDALANISH

**Kamolova Shirinoy Usarovna, katta o‘qituvchi
Jizzax davlat pedagogika universiteti**

shirin.kamolova.67@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishning uzlusizligini ta’minlashning axborotli ta’midotidan turli variantlarda foydalanish asoslari o‘rganilgan. Talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishning axborotli ta’midotidan bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda foydalanishning pedagogik asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Shaxs, dunyoqarash, axborot-kommunikatsion texnologiya, pedagogik faoliyat.

Yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ilmiy izlanishlarimiz natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, mustaqillik tufayli qo‘lga kiritilgan o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarga sodiq va eng asosiysi milliy g‘ururga ega bo‘lgan ilmiy dunyoqarashi keng, intellektual salohiyatlari bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash zamonaviy ta’lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biri ekan.

Ma’lumki, keyingi yillarda ta’lim-tarbiya jarayonidagi faoliyat yuritishni muayyan rejalashtirilgan tartibga soluvchi yondashuv sifatida pedagogik texnologiya nazariyasidan foydalangan holdagi pedagogik faoliyat e’tirof etilmoqda. Jumladan, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashlarga texnologik yondashuv qilish va mazkur jarayonlarga axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan keng foydalanishni amalga oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada R.SH. Axliddinov [68], N. Avazov [66], A. Akmalov [67], D. Ashurova [69], S. Bozorova [29], M.V. Glushkov [13], A. Zunnunov [30], M.E. Zufarova [123], X.I. Ibragimov [76], J.G. Yo‘ldoshev [80], N.X. Kushvaktov [131], M.X. Lutfullayev [133], B.M. Mirzaaxmedov [138], P.I. Obrazsov [92], SH. Ochilov [93], N.Saydaxmedov [95], A. Saloxova [96], A.R. Soxibov [57], S.A. Smirnov [98], O‘.Q. Tolipov[58], X.A. To‘raqulov [147], N. Xojiboyev [157], M. Shamsiyev [106], SH.S. Sharipov [60], Q. Eshmatov [32], S.T. Yuldasheva [63] va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijalari ahamiyatlidir. Yuqorida nomlari qayd etilgan mutaxassis-olimlarimizning ilmiy izlanishlari natijalari ta’lim-tarbiya jarayonlarini olib borishning bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning optimal variantlarini yaratishga muhim didaktik asos bo‘la oladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda sezilarli yordam beradigan didaktik asoslardan biri bu – ta’lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini topishdan iborat ekanligini ham ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarimiz natijalari taqozo etadi. Ayniqsa, unda kompyuterlar uchun o‘rgatuvchi muloqatli ishchi dasturlar, kasbiy kompyuterli o‘yinlar, ko‘makchi kompyuterli tizimlar va shu kabi didaktik asoslardan


talabalarning o‘zлари mustaqil ravishda foydalanilishi orqali ular ilmiy dunyoqarashi kengayishi sezilarli darajada ortadi, chunki tajribalar natijalarining ko‘rsatishicha, ta’lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini ikki barobar oshirar ekan [73,83,92,104,122,156,161]. Shu o‘rinda ma’lumotlarni «esda saqlab qolish piramida»sini keltirish o‘rinlidir.

«Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi eshitgan bilimlarining 10-20 foizini, ko‘rish bilan 30-50 foizini, eshitish va gapirish bilan 60-70 foizini, yozish bilan 80 foizini, ko‘rish va o‘zi bevosita bajarish bilan esa olgan bilimlarining 90 foizini esda saqlab qolar ekan»

Demak, ta’lim-tarbiya jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish muayyan fanni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishni kafolatlaydi, chunki ushbu jarayonda talaba «esda saqlab qolish piramidasi»ning «ko‘rish va o‘zi bevosita bajarish bilan esa olgan bilimlarining 90 foizini esda saqlab qolar ekan», degan punkt bo‘yicha faoliyat yuritadi va eng asosiysi talaba muayyan yo‘nalish bo‘yicha izlanadi.

«Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g‘oyalilar majmui bo‘lib, u shaxsni ma’lum qolipdan o‘z shaxsiy qiyo fasiga ega tarzda tabiatda munosib o‘rin egallashga chorlaydi»

Yuqorida keltirilgan, ya’ni, dunyoqarashga berilgan qomusiy va falsafiy lug‘atdagi ta’riflar hamda pedagogik va psixologik ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, dunyoqarash tushunchasi odamning o‘zining onadan tug‘ilishi bilan dunyonи ko‘rishidan boshlanib, yuksak intellektual salohiyatni egallagunga qadar rivojlanib boradi. Ular «aql → ong → fikr → ilm → bilim → qarash → g‘oya → ta’limot» tizim orqali rivojlanib, takomillashib boradi.



1.1.1.- shakl. Shaxs dunyoqarashi shakllanish omillari va ularning o‘zaro munosabatlari.

Shaxs dunyoqarashini tashkil etuvchilarini va ularning integratsiyasini quyida biz 1.1.1- shakldagidek ifodalashni lozim topdik, chunki bunday bog‘liqlik pedagogika fanidagi «Tarbiya nazariyasi»ning «Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish

va o‘quvchilarni aqliy tarbiyalash» bobini o‘rganilishiga mustahkam didaktik asos bo‘ladi.

Dunyoqarash shakllanishining yana bir xususiyati shundan iboratki, xususiy ko‘rinishlardan umumiy ko‘rinishlarga, ya’ni inividual xususiyatlardan ijtimoiy xususiyatlarga rivojlanib, takomillashib boraveradi va shuning bilan birga u ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq. Dunyoqarash kishilarning yoshi, hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasi va shu kabilar bilan bog‘liq ravishda rivojlanib takomillashib boradi.

Ma’lumki, talabalar ilmiy dunyoqarashini axborot texnologiyalari asosida shakllantirishning ilg‘or usullari, shakllari, vositalarini e’tiborga olib, talabalar intellektual salohiyatini yuksaltirishga axborotli ta’minotni tayyorlash, ayniqsa ular asosida mazkur jarayonni kompyuterlashtirish har qachongidan ham dolzarb muammodir.

Xuddi shuningdek bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishning uzlusizligini ta’minlashning axborotli ta’mintonidan turli variantlarda foydalanish mumkin va ushbu ko‘makchi kompyuterli tizimi ochiq tizim hisoblanadi. Shu sababli undagi axborotli ta’minotni doimo boyitib, yangilab borish mumkin va hattoki bu sohadagi talabalar bilimi monitoringini ham kuzatish mumkin. Bu imkoniyatlarning, ya’ni mavjud variantlarning barchasini ushbu tadqiqot ishida kiritishning iloji yo‘q, chunki dissertatsiya ishining hajmi chegaralangan. Shu sababli «INTELLEKT» nomli ko‘makchi kompyuterli tizimidan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda foydalanishni ifodalash bilan chegaralanamiz. Buning uchun 2.3.3-shakldagi tashkiliy-tuzilmaviy modeldan foydalanamiz.

Maqsad: shaxs intellektual salohiyatini uzlusiz ravishda yuksaltirish.

Endi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni tayyorlashdagi “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani bo‘yicha ilmiy dunyoqarash, tafakkur va milliy mafkurani shakllantirish mavzusini «INTELLEKT» nomli ko‘makchi kompyuterli tizimi yordamida o‘rganishni ko‘rib chiqaylik. Ushbu mavzuni ko‘makchi kompyuterli tizimi yordamida o‘rganishda § 2.1. dagi talabalar ilmiy dunyoqarashiini kengaytirishning uzlusiz ketma-ketligi (2.1.1-shakl)dagi shakllantiruvchi bosqichdagi ma’lumotlardan foydalanamiz. Ular MB₁ shaxs aqliy kamolotiga tegishli ma’lumotlar bo‘lib, bunda quyidagi ko‘rsatkichlar ta’riflariga e’tibor beriladi: aql; ong; fikr; fikrlash; ilm; bilim; fan; ijod; ilmiy qarash; yangi fikr; dunyoqarash; ilmiy dunyoqarash; tafakkur; mafkura; milliy mafkura.

O‘qituvchi berilgan mavzuni talabalarga o‘rgatishda auditoriyaga kompyuterli majmuani o‘rnatib qo‘yib maxsus ishlab chiqilgan ko‘makchi kompyuterli tizimlar yordamida yuqorida qayd etilgan ma’lumotlardan bir vaqtning o‘zida foydalanish mumkin. Bunda mavzuga mos materiallarni 2.3.3-shakldagi «BOSHQARISH ALGORITMI» yordamida tanlab olinadi. Bulardan tashqari ushbu ko‘makchi kompyuterli tizimda «DASTURIY TA’MINOT» va «AXBOROTLI TA’MINOT» bloklaridagi ma’lumotlardan ham «BOSHQARISH ALGORITMI» bloki yordamida foydalaniladi.

Demak, kompyuter elektr manbaiga ulanadi va «INTELLEKT» nomli ko‘makchi kompyuterli tizimini kompyuter monitoriga chiqarib olamiz. Unda «INTELLEKT» nomli ko‘makchi kompyuterli tizimi sizning xizmatingizda, degan yozuv chiqadi (dastur shu yo‘sinda tayyorlangan). Kompyuterdan va undagi ko‘makchi kompyuterli tizimidan foydalanish juda sodda qilib tuzilgan, ya’ni iste’molchi (o‘qituvchi yoki talaba) kompyuter monitoridagi topshiriqlarni, ya’ni ko‘rsatilgan raqamlari bor klavishlarni bosishni uddalasa bo‘ldi. Agar iste’molchi foydalanishni xohlasa «1» raqami bor klavishni bosish yetarli, aks holda «0» raqamii bor klavish bosilishi lozim va ko‘makchi kompyuterli tizimidan chiqib ketiladi (bu ham kompyuter monitorida ko‘rsatma shaklida keltiriladi).

Yuqoridagidek, bu bosqichda ham qaysi satrdagi ma’lumot kerak bo‘ladigan bo‘lsa, o‘sha so‘z to‘g‘risidagi raqamga mos klavish bosiladi va undan talabalar intellektual salohiyatini yuksaltirishga tayyor material sifatida foydalaniladi. Bu yerda shunisi diqqatga sazovorki, iste’molchi xohlasa yuqoridagi ma’lumotlar ketma-ketligidan navbatma-navbat foydalanishi mumkin va ayrim hollarda faqat mavzuga mos ma’lumot bilan chegaralanishi ham mumkin. Bu iste’molchining vaqt byudjetiga va xohishiga bog‘liqdir.

«Elektron portfel»da quyidagi tushunchalar ta’riflari bor: muhit, tarbiya, aql, ong, dunyoqarash, fikr, ilm, bilim, ilmiy bilim, ilmiy qarash, e’tiqod, xotira, iste’dod, ilmiy tafakkur, individual dunyoqarash, ijtimoiy dunyoqarash, tafakkur, g‘oya, qarash, ta’limot, ma’rifat, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, intellekt, intellektual mulk, intellektual salohiyatli inson, mentalitet, umuminsoniy qadriyatlar, sivilizatsiya, ilmiy qadriyatlar, ilmiy izlanish, fikrlash, xulosa qilish, yangi fikr, yangilik (ijodiy daraja), ijomah, ilmiy tushuncha, kuzatish, eksperiment, tajriba, modellash, matematikalashtirish, tizim, tizimiyl tahlil, tizimiyl yondashuv, referat, ma’ruza matni, ilmiy hisobot, kurs ishi, tezis, kurs loyihasi, ilmiy ma’ruza, maqola, faol ta’lim, modelli ta’lim, modulli ta’lim, annotatsiya, dasturlashtirilgan ta’lim, avtoreferet, muloqat nazorat darsi, konferensiya dars, topog‘onlik darsi, boshqotirmalardan foydalanish darsi, auksion dars, ko‘rgazmali dars, trening dars, ma’ruzalar kursi, axborot, ma’lumot, ma’lumotlar bazasi.

Bu «Elektron portfel»dagi ma’lumotlardan nafaqat ilmiy dunyoqarashi mavzusini o‘rganishda, balki, talabalar intellektual salohiyatini yuksaltirishda ham foydalanish mumkin. Bu juda zarur, chunki, XXI asr intellektual salohiyatli avlodniki, degan talablar qo‘yilmoqda.

«INTELLEKT» nomli ko‘makchi kompyuterli tizimi yordamida talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda quyidagi ketma-ketlik e’tiborga olinadi va shu asosda talabalar intellektual salohiyatini aniqlash mezoni yaratiladi hamda talabalarning ilmiy dunyoqarashini yuksalganlik bosqichi ham aniqlanadi:

1. Ilmiy dunyoqarashni yuzaga chiqaruvchi asoslar.
2. Ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi dastlabki asoslar.
3. Ilmiy dunyoqarashni rivojlantiruvchi asoslar.
4. Ilmiy dunyoqarashning natijaviy asoslari.

Yuqorida qayd etilgan 4 ta bosqich orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual salohiyati aniqlanadi va 2.3.3-shaklda

ko‘rsatilganidek natijalar belgilanadi hamda xulosalar qilinadi. Olingan natija va qilingan xulosalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning keyingi faoliyatiga mos tavsiyalar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Koshchanov E., Karimov R., Jabborov E. Ta’lim jarayonida matematik modellashtirish va EHM yordamida eksperiment o‘tkazish // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2002. – № 4. Б. 12-15.
2. Каримова В.М. Социальные представления об узбекской семье у юношей и девушек.– Автореф. дисс.... докт. пед. наук Ташкент: УзПФИТИ, 1994. – 40 с.
3. Kamolova, SH. O‘., & Munarova, R. O‘. (2010). Urovni sovershenstvo lichnosti. *Issledovatel nauchniy jurnal.-Qozog‘iston*, 5(49), 100-105.
4. Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O‘quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremenном obrazovanii*, 2(6).
5. Kamolova, S., & Maxmudova, A. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 3(1).
6. Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In *Aktualniye zadachi pedagogiki* (pp. 184-186).